

DAVLAT VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Yuldasheva To‘tixon Yakubovna*“Qishloq xo‘jaligi huquqi va agroturizm kafedrası” assistenti*totiyoyuldasheva1968@gmail.com**Ramatov Boburjon Alisher o‘g‘li**ramatovboburjon246@gmail.com**Shokirov Nurullo A‘zamboy o‘g‘li**shokirovnurullo634@gmail.com*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Yurisprudensiya ta‘lim
yo‘nalishi, 1-bosqich talabalari*

Annotatsiya . Ushbu maqola davlatning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qiladi. Davlat ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, madaniyat va ta‘limni rivojlantirish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy integratsiyani ta‘minlash orqali jamiyatning barqarorligini saqlaydi. Davlat organlarining fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashdagi roli, ta‘lim tizimi va madaniy tadbirlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida ma‘lumot beradi.

Kalit so‘zlar : Davlat, ijtimoiy tartib, xavfsizlik, adolat, iqtisodiyot, fuqarolik, madaniyat, ijtimoiy integratsiya.

Huquqshunoslik fanida “davlat” va “jamiyat” tushunchalari mavjud. Ammo davlat bilan jamiyat tushunchalari bir xil emas. Davlat – jamiyatning shakllangan siyosiy instituti. Jamiyat taraqqiyotining yetuklashgan muayyan davlat paydo bo‘lgan. Shunday ekan, jamiyat qanday bo‘lsa, davlat ham shunday bo‘ladi va aksincha. Jamiyat o‘z rivojida qanday bosqichlardan o‘tsa, davlat ham shunga mutanosib tarzda o‘zgarib, takomillashib boraveradi. Bu – qonuniyat.

Davlatlarning tashkil topishi bu — insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan sivilizatsiya tomon burilishi edi. Dunyoda birinchi sivilizatsiyalashgan davlatlarning paydo bo‘lishi Qadimgi Sharqda miloddan avvalgi IV—III ming yilliklar davriga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo‘la boshlagan. Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O‘zbekiston hududida ilk davlatlar Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya paydo bo‘lgan davrdanoq mamlakatimizda davlatchilik asoslari uzil-kesil tashkil topdi. Qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlari uyushmasi-ittifoqi hududiga Sirdaryodan

O‘rta Afg‘onistongacha bo‘lgan yerlar kirgan. Xorazm davlatining markazi Ko‘zaliqir (Xorazm) shahri bo‘lgan.

Davlat, avvalo, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. U qonun va tartibni o'rnatish, fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlaydi. Davlat organlari, masalan, politsiya va sudlar, fuqarolar xavfsizligini ta'minlaydi va qonunlarga amal qilinishini ustidan nazorat olib boradi. Davlat iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. U iqtisodiy siyosatni ishlab chiqadi, investitsiyalarni jalb etadi va ish o'rinlarini yaratadi. Davlat tomonidan taqdim etiladigan infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalar iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat ijtimoiy himoya dasturlari orqali kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Davlat hududida istiqomat qiluvchi va uning hokimiyatiga bo'ysunuvchi odamlar uning fuqarolari hisoblanadi. Davlat aholisi uning tuzilishiga ko'ra bir millatdan tashkil topishi yoki ko'p millatli bo'lishi mumkin. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi, ular ijtimoiy mavqei, tili, dini, urf-odatidan qat'iy nazar, O'zbekiston respublikasining fuqarolari bo'lib, hudud miqyosida birlashganlar. O'zbekiston ijtimoiy davlat, ya'ni fuqarolarning bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi va bu respublika konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Asosiy qonunimiz, ya'ni konstitutsiyaning 46-moddasiga ko'ra Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Mamlakatni rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlar, davlat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini isloh qilish borasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish davlat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Joriy yilda ayni sana bilan bog'liq bayram tadbirlari "Ijtimoiy adolat yo'lidagi g'ovlarni olib tashlash va imkoniyatlarga keng yo'l ochish" mavzusiga bag'ishlandi. Bu, o'z navbatida, BMTga a'zo davlatlar, yoshlar, ijtimoiy sheriklar, fuqarolik jamiyati, BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro muloqotni qaytadan yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Iqtisodiy integratsiya – turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o'rtasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'rnatilishi, mamlakatlararo yagona umumiy xo'jalikning shakllanishi jarayoni. Iqtisodiy integratsiya butun bir mamlakatlar milliy xo'jaliklari darajasida, shuningdek, korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar darajasida ham kuza-tiladi. Ishlab chiqarish-texnologik aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvida, resurslardan hamkorlikda foydalanish, kapitallarni birlashtirishda hamda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish

jarayonida birbiriga qulay sharoitlarni yaratishda, o‘zaro to‘siqlarni olib tashlashda namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, davlatning ijtimoiy ahamiyati juda katta. U fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, madaniyat va ta'limni rivojlantirish, huquqlarni himoya qilish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlash orqali jamiyatning barqarorligini saqlaydi. Davlatning samarali faoliyati ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi va fuqarolar hayotini yaxshilashga xizmat qiladi. Shunday ekan, davlat ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir va uning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi.